XALQ DEPUTATLARI DEHQONOBOD TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 26 - dekabr VI-46-145-4-57-K/22 Dehqonobod tuman hokimligi

Dehqonobod tuman mahalliy budjetining 2022-yil moliya yili mobaynidagi xarajatlar qismiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 27-moddasiga asosan, G‘uzor tumanlararo iqtisodiy sudining 2022-yil 10-oktyabrdagi 4-1803-2202/1197-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida tuman mahalliy budjetining 2022-yil moliya yili mobaynidagi xarajatlar qismiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri F.Nurmatovning taqdim etgan hisobotini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun tasdiqlangan parametriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri F.Nurmatovning taqdim etgan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2022-yil moliya yili mobaynidagi xarajatlar qismiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri (F.Nurmatov)ga;

- O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi talablariga asosan tuman mahalliy budjetining 2022-yil moliya yili mobaynidagi xarajatlar qismiga belgilangan tartibda mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan o‘zgartirishlarni kiritish topshirilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Kengashning mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o’rinbosari U.Usmonov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Aliqulov.Z.X**

Xalq deputatlari Dehqonobod tuman
Kengashining
2022 yil 26 dekabrdagi
VI-46-145-4-57-K/22-son qaroriga
1-ilova

Dehqonobod tuman mahalliy budjetining 2022-yil moliya yili mobaynidagi xarajatlar qismiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

(ming so‘m)

Tashkilot nomi	Bo‘lim	Kichik bo‘lim	Bob	O‘zgarish summasi - jami		Shu jumladan, choraklar bo‘yicha															
						(Ko‘paygan+ Kamaygan-)															
				Ko‘payish summasi	Kamayish summasi	**I chorak**	shundan			**II chorak**	shundan			**III chorak**	shundan			**IV chorak**	shundan		
							yanvar	fevral	mart		aprel	may	iyun		iyul	avgust	sentabr		oktabr	noyabr	dekabr
a	1	2	3	8	10	**11**	12	13	14	**15**	16	17	18	**19**	20	21	22	**23**	24	25	26
Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi	**7109**	**120**	**141**	**0,0**	**-17 000,0**	0				**0,0**				**0,0**				**-17 000,0**			-17 000,0
Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (QFY)	**7011**	**401**	**259**	**0,0**	**-2 700,0**	0				**0,0**				**0,0**				**-2 700,0**			-2 700,0
Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (MFY)	**7011**	**402**	**259**	**0,0**	**-71 700,0**	0				**0,0**				**0,0**				**-71 700,0**			-71 700,0
Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	**7083**	**610**	**135**	**0,0**	**-11 000,0**	0				**0,0**				**0,0**				**-11 000,0**			-11 000,0
Irrigatsiya bo‘limi	**7042**	**402**	**170**	**0,0**	**-63 000,0**	0				**0,0**				**0,0**				**-63 000,0**			-63 000,0
Xalq ta'limi bo‘limi (BABM)	**7096**	**100**	**75**	**0,0**	**-5 000,0**	0				**0,0**				**0,0**				**-5 000,0**			-5 000,0
Xalq ta'limi bo‘limi	**7096**	**300**	**75**	**0,0**	**-16 348,0**	0				**0,0**				**0,0**				**-16 348,0**			-16 348,0
Maktabgacha ta'lim bo‘limi	**7098**	**602**	**251**	**0,0**	**-6 000,0**	0				**0,0**				**0,0**				**-6 000,0**			-6 000,0
Maktabgacha ta'lim bo‘limi (MTTlar)	**7091**	**100**	**251**	**0,0**	**-33 000,0**	0				**0,0**				**0,0**				**-33 000,0**			-33 000,0
Tuman hokimligi	**7011**	**204**	**18**	**225 748,0**	**0,0**	0				**0,0**				**0,0**				**225 748,0**			225 748,0
Hammasi				**225 748,0**	**-225 748,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**